



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2026-yil 9-aprel

83-5-0-Q/26

Navoiy viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-apreldagi “Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo‘yicha qo‘shimcha-chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-51-son Farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

Aholi bilan davlat organlari o‘rtasida ochiq va samarali muloqotni ta‘minlash, fuqarolarning murojaat qilish huquqini so‘zsiz amalga oshirish orqali ularning davlat boshqaruvida ishtirokini yanada kengaytirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-apreldagi “Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo‘yicha qo‘shimcha-chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-51-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-apreldagi “Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo‘yicha qo‘shimcha-chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-51-son Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu farmoni bilan quyidagilar:

Farmon ijro etilishining asosiy maqsadlari va chora-tadbirlari (maqsadlar, aholi va davlat organlari o‘rtasidagi muloqot ko‘lamini kengaytirish va samaradorligini oshirish, xalq qabulxonalari faoliyati samaradorligini oshirish, Prezident xalq qabulxonasining vazifalari, huquq va vakolatlari, farmon ijrosini tashkil etish, ta‘minlash va nazorat) belgilanganligi;

aholi murojaatlari bilan ishlash bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari hisobotlarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatida, hokimlar hamda hududiy davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari hisobotlarini esa tegishlicha Senatda yoki mahalliy Kengashlarda har chorakda kamida bir marta eshitib borish tartibi joriy etilganligi;

LTM6879

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimlari Xalq qabulxonasiga jamoatchilik asosida rahbarlik qilishi hamda muntazam ravishda Xalq qabulxonasida fuqarolarni shaxsan qabul qilishi va muammolarini joyida hal qilish choralarini ko‘rishi, murojaatlarni tahlilini olib borishi;

vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan faoliyati bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida qilinadigan taqdimotlarda aholi murojaatlaridagi tizimli muammolar va ularning yechimi yuzasidan rejalari haqida alohida hisobot berilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual va Xalq qabulxonalariga kelib tushgan murojaatlar bilan ishlash holati bo‘yicha har olti oyda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi axborot tizimi orqali davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy hokimliklarning reytingini ochiq e‘lon qilib borilishi, reytingda murojaatlar salmog‘i, ularni hal etish darajasi, muddatlarga rioya etilganligi, murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha tizimga kiritilgan materiallar qayta ijroga yuborilishi, takroriyligi kabi mezonlar aks ettirilishi;

davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy hokimliklar tomonidan o‘tkaziladigan shaxsiy va sayyor qabullar tizimini to‘liq raqamlashtirish orqali qabullar jarayoni ustidan nazorat o‘rnatilishi;

jamoaviy tusdagi murojaatlar aholi vakillari va “mahalla yettiligi” ishtirokida o‘rganilib, ular roziligi asosida nazoratdan olinishi;

davlat organlari va tashkilotlarining murojaatlar bilan ishlash bo‘linmalari xodimlari, shuningdek, "mahalla yettiligi" a‘zolarining murojaatlar bilan ishlash faoliyati tegishlicha Xalq qabulxonalarini tomonidan muvofiqlashtirilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasi(keyingi o‘rinlarda - Prezidenti Xalq qabulxonasi) tashkil etilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar)dagi Xalq qabulxonalarini Prezident Xalq qabulxonasining alohida bo‘linmalari sifatida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yuritishi hamda mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar)dagi Xalq qabulxonalarida mavjud shtat birliklari doirasida Xalq qabulxonasi mudir o‘rinbosari lavozimi joriy etilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qabuli so'ralgan murojaatlar bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Viloyat hokimining o'rinbosarlari (R. Sulaymonov, A. Niyozov), viloyat ishlar boshqarmasi (S. Shamshiyev) hamda barcha tuman (shahar) hokimlari ikki oy muddat ichida viloyatdagi barcha Xalq qabulxonalarining moddiy-texnik bazasini to'liq xatlovdan o'tkazib, ularda xalq bilan muloqot qilish va murojaatlar bilan ishlashni yaxshilash uchun zarur sharoitlar yaratsin, Xalq qabulxonalari xodimlarini zamonaviy kompyuterlar, mebel jihozlari hamda boshqa kerakli asbob-uskunalar va anjomlar, yuqori tezlikdagi Internet tarmog'i bilan ta'minlash choralarini ko'rsin.

4. Viloyat hokimligi murojaatlar bilan ishlash bo'limi (Q. Abduazizov), tuman (shahar) hokimlari kelib tushayotgan murojaatlarni hal qilish, ularni tahlil qilish, aniqlangan tizimli muammolar yechimi yuzasidan takliflarni ishlab chiqish uchun viloyat, tuman (shahar) hokimliklarida doimiy faoliyat olib boradigan ishchi guruhlar tashkil etilishini hamda ularga hududiy davlat organlari va tashkilotlarining shaxsan birinchi rahbarlari boshchilik qilishini, ishlab chiqilgan takliflar har uch oyda Vazirlar Mahkamasiga kiritib borilishini ta'minlasin.

5. Viloyat hokimligi murojaatlar bilan ishlash bo'limi (Q. Abduazizov), viloyat hokimligi axborot xizmati (Sh. Rauboyeva), tuman (shahar) hokimlari har chorakda kamida bir marta ommaviy axborot vositalari yoki hokimliklarning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali murojaatlar bilan ishlash faoliyati, hududda muammolarni hal qilish bo'yicha ko'rilgan choralar, kelgusida bajariladigan ishlar va rejalar haqida keng jamoatchilikka batafsil axborot berib borsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Viloyat hokimi



N. Tursunov